

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Son 9 Jild 4

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ 9 (4) - 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллӣ Университети.

Сайдов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ҳодим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳоновиҷ – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёрова – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмурадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасолович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баҳодирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши хузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўёраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуроевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұхайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баҳодировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўйими психология хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч қўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich</i>	
RIVOJLANGAN O'RTA ASRLARDA PIRENEY YARIM OROLIDAGI KORTESLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI .....	10-14
<i>Azizbek Xolliyev</i>	
XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA ROSSIYA TOG'-KON SANOATIDA BRITANIYA SARMOYASINING TUTGAN O'RNI .....	15-20
<i>Mahkamov Abdiqayum Mahkamovich</i>	
SUDYALAR OLIY KENGASHINING SUDYALAR KORPUSINI SHAKLLANTIRISHDA TUTGAN O'RNI (TARIXIY TAHLIL) .....	21-25
<i>Eshimov Shaxridin Xujayorovich</i>	
SUD – HUQUQ TIZIMIDAGI TARG'IBOTCHILIK FAOLIYATI VA MA'NAVIY – MA'RIFIY ISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) .....	26-31
<i>Намазова Умидা Нормурадовна</i>	
ИЛК ЎРТА АСРЛАР СУФДДА НИКОҲ: ШАКЛЛАНИШИ, ТАРИХИЙ ИЛДИЗЛАРИ ВА ХУСУСИЯТЛАРИ .....	32-41
<i>Самадов Искандар Исматович</i>	
ХОРАЗМ ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ (XXCP)ДА ЕР-СУВ МАСАЛАСИ .....	42-48
<i>Rustamova Madina Musoqulovna</i>	
SAMARQAND VILOYATI XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN, TA'LIM VA INNOVATSIYALARGA QO'SHGAN HISSASI .....	49-56
<i>Jiyanbekova Sharofat Abdikaharovna</i>	
SOVET DAVRIDA KITOБ TAQIQLARIGA NISBATAN O'ZIGA XOS SENZURA AMALIYOTLARI... ..	57-64
<i>Tursunov Javlonek Akrom o'g'li</i>	
MUQADDAS QADAMJOLAR. SAMARQAND SHAHRINING TARIXIY TOPONOMIYASINING MUHIM TARKIBIY QISMI .....	65-68

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

<i>Tolipova Baxtigul</i>	
MAMLAKAT OZIQ-OVQAT SANOATIGA YO'NALTIRILGAN INVESTISIYALARING EKONOMETRIK TAHLILI .....	69-77
<i>Mamanazarov Abdusamat Abdusaitovich</i>	
O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASIDA PUL-KREDIT SIYOSATI KO'RSATKICHLARI TAHLILI ....	78-83
<i>Амбарцумян Анастас Алексеевич, Хасанова Руфина Раисовна</i>	
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ .....	84-96
<i>Meliyeva Nargiza Eshboyevna</i>	
INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA RIVOJLANGAN DAVLATLARING TAJRIBASI ....	97-104

<i>Исраилов Рустам Ибрагимович</i>	
КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ	
МАСАЛАЛАРИ .....	105-109
<i>Jumaniyazov Inomjon To'raevich</i>	
APPLICATION OF ESG PRINCIPLES IN THE ACTIVITIES OF SOVEREIGN	
INVESTMENT FUNDS .....	110-120
<i>Amonov Navro'xon Saloxiddin o'g'li</i>	
MINTAQAVIY MEHNAT BOZORIDAGI ISHCHI KUCHIGA TALAB VA TAKLIFNI	
ISTIQBOLLASHTIRISH YO'LLARI .....	121-129
<i>Mirxamidova Zahinabonu Mirxamid qizi</i>	
ROBOTLASHTIRISH DAVRIDA MEHNAT BOZORINING O'ZGARISHI: TO'RTINCHI SANOAT	
INQILOBI MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI.....	130-138
<i>Kalbayev Muratbay Aytbaevich</i>	
AYLANMA MABLAG'LARNI TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI .....	139-144
<b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Ernazarova Yorqinoy Ollaberganova</i>	
RIVOJLANGAN DAVLATLARDA KADRLAR XIZMATINI TASHKIL ETISH: ODOB-AXLOQ	
QOIDALARI VA KASBIY MADANIYAT TALABLARIGA RIOYA ETILISHINI TA'MINLASH	
MEXANIZMLARI .....	145-155
<i>Ahrorova Shahlo O'rinoiboyevna</i>	
GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY QADRIYATLARNING	
TAKOMILLASHUVI JARAYONI .....	156-161
<i>Рахманов Баҳодир</i>	
АЛИШЕР НАВОЙЙ КОМИЛ ИНСОН КОНСЕПСИЯСИДА СИНЕРГЕТИК	
ФОЯЛAR ИН'ИКОСИ .....	162-170
<i>Нуралиева Насиба Ахмадкуловна</i>	
ЖАДИД МУТАФАККИРЛАРИ ИЖОДИДА ТАРБИЯГА ОИД ҚАРАШЛАРНИНГ ФАЛСАФИЙ	
ТАҲЛИЛИ .....	171-176
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Fayzulloyev Otabek Muhamadovich</i>	
KATTALAR FOLKLORINING TARKIBIY QISMI – BOLALAR FOLKLORI HAQIDA.....	177-184
<i>Токимбетова Гулбахор Абатбаевна</i>	
ЎЗБЕК-ҚОРАҚАЛПОҚ АДАВИЁТШУНОСЛИГИДА ИРФОНИЙ ОБРАЗЛАР .....	185-190
<i>Yusupova Sadokat Aljon qizi</i>	
"BOBURNOMA"NING YAPONIYADA O'RGANILISHI .....	191-197
<i>Xudoyberdiyeva Gulmira Allaberdi qizi</i>	
JAHON TILSHUNOSLIGIDA POLISEMIYA HODISASIGA LINGVISTIK YONDASHUV (RUS VA	
INGLIZ TILSHUNOSLIGI MISOLIDA) .....	198-201
<i>Tangriyev Valisher Azamovich</i>	
SOMATIK IFODALAR ORQALI BERILGAN PARALINGVISTIK VOSITALARNING	
QIYOSIY TADQIQI: "ANOR" HIKOYASI MISOLIDA .....	202-206

*Abulova Zilola Azimovna*

- INGLIZ AFORIZMLARINING TARKIBIDA BIR JUMLA HAMDA QO'SHMA GAPLAR BILAN  
IFODALANGAN AFORIZMLAR XUSUSIYATLARI ..... 207-201

*Qurbanova Dilnoza Olimovna*

- TYPES AND FUNCTIONS OF ADVERTISEMENT IN ENGLISH AND UZBEK ..... 210-216

*Quljanova To'lg'anoy Shodiyor qizi*

- ASQAR MAHKAM IJODIDA BUVI OBRAZINING O'ZIGA XOSLIGI ..... 217-221

*Babajanova Aziza Rustamovna*

- ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA BAHOR MAVZUSINING BADIY TALQINI ..... 222-227

*Khursanova Laylo Bakhtiyarovna*

- REPRESENTATION OF THE CONCEPT OF "PATIENCE" IN SPECIAL ENGLISH  
DICTIONARIES ..... 228-232

*Diyorova Mohlaroyim Xamza qizi*

- O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SIFAT SO'Z TURKUMI TADQIQI ..... 233-238

*Samadova Visola Baxtiyor qizi*

- INGLIZ, O'ZBEK VA RUS TILLARIDA ANTONIM KOMPONENTLI FE'L FRAZEOLOGIK  
BIRLIKLARLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI ..... 239-242

## **12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

*Tўlaganova Gulchexra Zakhitovna, Goфurova Dilafruz Murod қизи*

- АЭЛЛАР ТОМОНИДАН СОДИР ЭТИЛГАН ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШНИ  
РЕЖАЛАШТИРИШ, ЮЗАГА КЕЛАДИГАН ТЕРГОВ ВАЗИЯТЛАРИ ВА ВЕРСИЯЛАРНИ  
ИЛГАРИ СУРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ..... 243-252

*Tosheva Maftuna Anvar qizi*

- INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALALARINING TRANSPLANTATSIYASI BILAN  
BOG'LIQ JINOYATLAR ..... 253-262

*Ikramov Sherzod Raximjanovich*

- VOYAGA YETMAGAN SHAXSLARNI MODDIY TA'MINLASHDAN BO'YIN TOVLASHNING O'ZIGA  
XOS XUSUSIYATLARI ..... 263-266

## **13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Tohirova Mohigul Umir qizi*

- KO'RISHDA NUQSONI BOR SHAXSLARNING IJTIMOIY UMIDSIZLIK DARAJASINI PSIXOLOGIK  
O'RGANISH. (L.I.VASSERMANNING "IJTIMOIY FRUSTRATSIIA (UMIDSIZLIK) DARAJASINI  
DIAGNOSTIKA QILISH METODOLOGIYASI" ASOSIDA) ..... 267-274

*Nasriddinov Dadaxon Komiljonovich*

- OLIY HARBIY TA'LIMDA FIZIKA O'QITISH SAMARADORLIGINI MOBIL ILOVALAR VA  
ROBOTOTEXNIKA ELEMENTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN OLIB  
BORILGAN PEDAGOGIK TAJRIBASINOV ISHLARI VA ULARNING NATIJALARI ..... 275-281

*Xojaniyazova Inkar Jumanazarovna*

- BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA DIDAKTIK MATERIALLARDAN FOYDALANISH  
IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH MASALALARI ..... 282-292

*Ashurova Marhabo Sayfulloyevna*

- BUXORO JADIDLARI VA YANGI USUL MAKTABALARIDA O'QITISH IMKONIYATLARI .... 293-301

<i>Алимова Нигора Исраиловна</i>	
ОСОБЕННОСТИ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА В ОБРАЗОВАНИИ И ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ, НАХОДЯЩИХСЯ НА ДЛИТЕЛЬНОМ ЛЕЧЕНИИ .....	302-308
<i>Mamajonova Gulnoza Karimovna</i>	
IJTIMOIY FANLARNI TEXNIKA YO'NALISHI TALABALARIGA O'QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI .....	309-313
<i>Axmadjanova Madina Maxmudjon qizi</i>	
GRAMMATIK MINIMUM VA UNI O'QITISH METODLARI .....	314-319
<i>Norboyev Zafar Abdumuminovich</i>	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA CEFR ME'ZONLARI ASOSIDA YANGI AVLOD DARSLIKLARINI YARATISH TEKNOLOGIYALARI .....	320-323
<i>Axmedova Zuxraxon Tulyanbayevna</i>	
QO'L TO'PI O'YININING JISMONIY JIHATDAN O'QUVCHILARNING O'QISHNI TUSHUNISHLARIGA TA'SIRI .....	324-329
<i>Юсупова Заррина Курбоновна</i>	
УНИКАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ И ВЫЗОВЫ В РАЗВИТИИ ЦИФРОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ .....	330-334
<i>Ravshanova Xafiza Komilovna</i>	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARIDA TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI .....	335-340
<i>Nurbayeva Xolniso Uralovna</i>	
GENDER STREOTIPLAR GENDER MADANIYATNING TARKIBIY QISMI SIFATIDA .....	341-345
<i>Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING TIZIMLI FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH MUHIM PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA .....	346-351
<i>Mustayeva Guliston Bo'ribo耶evna</i>	
TIBBIY TA'LIMDA AKS ETTIRISH AMALIYOTINING AHAMIYATI: UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA KO'MAKLASHISH .....	348-356
<i>Ahmedbekova Maxpuzaxon</i>	
TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'QUVCHILAR BILIMINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK VA INNOVATSION JIHATLARI .....	357-362
<i>Utkirov Abbos Meyliyevich</i>	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE IMPACT ON HIGHER EDUCATION QUALITY AND EFFICIENCY .....	363-388
<i>Xodiyeva Gulhayo Hasan qizi</i>	
BOSHLANGICH SINF O'QUVCHILARIDA MATEMATIKA FANI ORQALI TANQIDIY-TAHLILIY HAMDA MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI .....	389-393
<i>Maxliyo Qalandarova</i>	
UMUMTA'LIM MAKTABALARIDA MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCILARNING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH SHAKLLARI VA USULLARI.....	394-399

**Received:** 30 August 2024**Accepted:** 5 September 2024**Published:** 15 September 2024*Article / Original Paper***THE PROCESS OF IMPROVING NATIONAL VALUES IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION****Akhrorova, Shakhlo Urinboevna,**

Doctor of Philosophy, Senior Researcher, Institute of Socio-Spiritual Research at the MMM of the Republic of Uzbekistan

E mail: [Shaxlo.67@mail.ru](mailto:Shaxlo.67@mail.ru)

**Abstract.** Globalization penetrates all countries of the earth, shows its influence and expands connections and relations not only between countries, but also between individuals in different countries. The emergence of such relations creates the possibility of more complete satisfaction of the growing needs of humanity, but also shows its negative characteristics associated with national values. The article discusses the tasks of public administration policy in the era of globalization in terms of improving national values.

**Keywords:** globalization, social policy, national values, economic integration, cultural integration, scientific and technological achievements, youth education, improvement, society, democratic thinking, national thinking.

**GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY QADRIYATLARNING TAKOMILLASHUVI JARAYONI****Ahrorova Shahlo O'rinoevna,**

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori, Respublika MMM huzuridagi Ijtimoiy ma'naviy tadqiqotlar instituti katta ilmiy xodimi.

**Annotatsiya.** Globallashuv yer yuzidagi barcha davlatlarga kirib boradi, o'z ta'sirini ko'rsatadi va nafaqat davlatlar, balki turli davlatlardagi alohida individlar o'rtasidagi aloqa va munosabatlarni ham kengaytirib boradi. Bunday munosabatlarning vujudga kelishi insoniyatning tobora ortib borayotgan ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirishga imkoniyat yaratadi. Biroq u o'zining milliy qadriyatlar bilan bog'liq salbiy xususiyatlarini ham namoyon etadi. Maqolada davlat boshqaruv siyosatining globallashuv davrida milliy qadriyatlarni takomillashtirishga oid vazifalari to'g'risida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** globallashuv, ijtimoiy siyosat, milliy qadriyatlar, iqtisodiy integratsiya, madaniy integratsiya, fan-texnika yutuqlari, yoshlar tarbiyasi, takomillashuv, jamiyat, demokratik tafakkur, milliy tafakkur.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I9Y2024N19>

**Kirish.** Globallashuv jahon miqyosidagi yaxlit taraqqiyot tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy integratsiyani o'zida ifoda etadi. Demak, globallashuv eng avvalo, davlatlararo iqtisodiy integratsiya va mamlakatlarning iqtisodiy ixtisoslashuvida, xom ashyo yetishtirish, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va ularning oxirgi iste'molchiga yetib borishigacha bo'lgan iqtisodiy-moliyaviy jarayonni qamrab olgan jahon iqtisodiyoti va uning yaxlit tizimi shakllanishida; axborot va kommunikatsiya sohasining keskin rivojlanishi va hayotning barcha sohalariga salmoqli ta'siri va ahamiyatida; fan-texnika yutuqlari va ularning jahon xalq xo'jaligi

barcha tarmoqlariga joriy etilishida; xalqlar madaniy hayotidagi o'zaro ta'sir va o'zaro munosabatlarning kengayishida; umumbashariy tamo yillar va umuminsoniy qadriyatlarning ahamiyati oshib borishida; xalqaro darajadagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va madaniy-ma'rifiy tashkilotlar, korporatsiyalar, konsern va birlashma kabi xalqaro institutlarning tashkil topishida; odamlar dunyoqarashi kengayib borishida va intellektual ehtiyojlarning ortib borishi kabilarda namoyon bo'ladi. Bugungi kunda umumjahon miqyosida masalalar, global muammolar vujudga kelmoqda va ularni faqatgina davlatlararo munosabatlar, o'zaro hamkorlikni ifoda etadigan xalqaro tashkilotlar yordamidagina hal etish mumkin. Globallashuv yer yuzidagi barcha davlatlarga kirib boradi, o'z ta'sirini ko'rsatadi va nafaqat davlatlar, balki turli davlatlardagi alohida individlar o'rtasidagi aloqa va munosabatlarni ham kengaytirib boradi. Bunday munosabatlarning vujudga kelishi insoniyatning tobora ortib borayotgan ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirishga imkoniyat yaratadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** “Globallashib borayotgan va ma'rifiy sohada turli tahdidlar kuchayib borayotgan bugungi dunyoda ma'naviy hayotimizda o'zgarishlar dinamikasining tadrijiy rivojlanish darajasi, unga xos umumiy qonuniylarning amalga oshishi va bu bilan bog'liq o'ziga xos milliy xususiyatlarga alohida ahamiyat qaratishimiz darkor”, deydi Prezidentimiz “Yangi O'zbekiston strategiyasi” asarida.[1,268-b]

Globallashuv o'zining keng tarmog'i, yutuqlari va muammolari bilan hayotning barcha jabhalariga kirib borgani kabi, ko'plab sohadagi fanlarning ham predmetiga aylandi. Zero hayotimizga kirib keladigan har qanday yangilik, obyektiv voqelikni ilmiy asosda o'rganish jamiyat takomillashuiga oid ishlarni to'g'ri rejalashtirish uchun poydevor vazifasini o'taydi.

Globallashuv va bu davrda qadjriyatlarga munosabat masalalariga oid adabiyotlarda ko'pgina ta'riflarni uchratishiimiz mumkin. Xususan, professor Q.Nazarovning e'tirof etishicha: “Insoniyat taraqqiyoti va jamiyat hayotining jahon miqyosida integratsiyalashishi natijasida sodir bo'layotgan jarayonlarning olamshumul ahamiyat kasb etishi “globallashuv” tushunchasida o'z ifodasini topmoqda”.[2,614-b.] Yoki, “globallashuv – muayyan bir mahalliy kichik tizimchalarga tabaqlashgan jahon miqyosidagi umumiy ijtimoiy madaniy tizimning vujudga kelishi”dir.[6,52-b.] Umuman olganda, globallashuvni ijobiy hodisa, deb baholash mumkin. Shuningdek, insoniyat va jamiyatlar taraqqiy etib borarkan, globallashish hodisasi muqarrar va tabiiy jarayon hisoblanadi. Ammo, har qanday taraqqiyot dialektik tarzda amalga oshadi, uning bir maromda ko'ringan dinamik rivojlanishida o'ziga xos qarama-qarshiliklar, ichki ziddiyatlar namoyon bo'ladi. Xususan, umumbashariy qadriyatlarning shakllanishi va takomillashishi milliy qadriyatlarning yemrlilib borishiga olib kelishi mumkin. Ammo, milliy unsurlarsiz umumbashariy qadriyatlarning yashovchanligi kamayadi va ularni joriy etishda ham o'ziga o'ziga xos muammolar yuzaga keladi. Bu kabi ziddiyatlar globallashuvning salbiy tomonlari bilan bog'liq masalalarni yuzaga chiqaradi.

Jumladan, jahon iqtisodiyotida monopoliyalarning chegara hatlab chiqayotganligi, transmilliy va global darajadagi jinoyatlarning sodir etilish hollari uchrayotganligi; ijtimoiy notenglikning kuchayib borishi, buning natijasidagi migratsiya holatlari, iqtisodiy nochor davlatlarda ichki nizolarning kuchayishi; siyosiy mavqeyi kuchli va rivojlangan davlatlarning rivojlanmagan va rivojlanib borayotgan davlatlarni iqtisodiy qaramlikda ushlashga bo'lgan harakati; yuqumli kasalliklar, zararli odatlar, buzg'unchi g'oyalarning chegara bosib o'tayotganligi; “global hodisalarning muayyan jamiyatdagи kishilar, ayniqsa yoshlar ma'naviyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganligi”,[3,117-b.] shuningdek, xalqlarning asrlar

mobaynida ajdodlardan avlodlarga o'tkazib kelayotgan milliy urf-odatlari, qadriyatlari umumbashariy tamoyillar va qadriyatlar birlashuvi ta'siri ostida yo'qolib ketish xavfi ostida qolayotganligi kabilarni insoniyat oldidagi globallashuv hodisasi bilan bog'liq xavf-xatar va muammolar sifatida sanab o'tish mumkin. Shu o'rinda K.Zigbersning globallashuvga o'ziga xos rivojlanish yo'lining torayishi, umumiy yo'lidan og'ishning iloji bo'lmasligi, hukumat yoki jamiyat tomonidan ongli ravishda o'ziga xos taraqqiyot yo'lini tanlash imkoniyatining qisqarishi, deb bergen ta'rifini eslash joiz.[3,114-b.]

**Muhokama.** Milliy qadriyatlarning "yemrilib" borish xavfi darajasini aniqlash uchun bu qadriyatlarning mohiyati va zarurati, ularning davlat jahon sahnida o'z o'rnini topishidagi ahamiyatiga to'xtalamiz. Umumbashariy tamoyillar asosida jamiyat ravnaqini ta'minlovchi demokratik davlat qurish – xalq manfaatini ifodalaydigan ijtimoiy siyosatning asosiy maqsadi hisoblanadi. Buning uchun ijtimoiy siyosat fuqarolarda milliy va demokratik tafakkurning uyg'unlashuvi va qadriyatlashuviga erishmog'i lozim. Bu jarayon demokratik va umumbashariy qadriyatlarning qadriyatlari tizimidan salmoqli o'rinni egallahini toqazo etadi. Bu qadriyatlarning qiymati insonlarning milliy o'zilagini anglashi orqali yuzaga chiqadi. U jahon sahniga chiqishdan oldin, bu sahnda o'zining milliy o'rnini belgilab olishi lozim. Globallashuv sharoitida aynan milliy qadriyatlari insonning o'z qadrini anglashiga va o'z o'rnini belgilashiga yordam beradi. Inson o'z qadrini bilmas ekan, o'zgalardan ham qadr topmaydi. Buni millat, yoki davlatga nisbatan ham ifoda etish mumkin. Ya'ni, millat o'z qadrini avaylamas va saqlamas ekan, jahon sahnidan tushib ketadi. Masalan, tubni bilmasdan turib balandlikni o'lchab bo'lmaydi, o'lchov balandlikning tubga nisbatida olinadi. Demak, tub, asos bo'lmasa, balandlik o'z mohiyatini, darajasini yo'qotadi. Shuningdek, tub poydevor sifatida mustahkam bo'lsa, balandlik barqaror bo'ladi. Shu ma'noda, globallashuv sharoitida milliy qadriyatlari tub, asos sifatida umuminsoniy qadriyatlarning barqarorligini ta'minlaydi, ijtimoiy siyosatning globallashuv bilan uyg'unlashuvida o'z o'rnini ifodalaydi. Umumbashariy tamoyillar asosida umuminsoniy qadriyatlarni xalqning qalbi va ongiga singdirishda ijtimoiy siyosat aynan milliy qadriyatlardan foydalanadi, uminsoniy qadriyatlari milliy qadriyatlari vositasida "milliy lashsa", milliy qadriyatlari umuminsoniy tamoyillar asosida takomillashadi.

Globallashuvning ta'siri jamiyat ijtimoiy sohasida ham keskin aks etadi va bu sohani isloq qilishda quyidagilarga keng e'tibor qaratilishi lozim: ijtimoiy ziddiyatlarning keskinligini kamaytirish; odamlarning yangi turmush sharoitlariga moslashishini osonlashtirish; davlat ijtimoiy iste'mol fondlarini tashkil etish va ulardan jamiyatning har bir a'zosi foydalanishini kafolatlaydigan qonunlar qabul qilish; davlatning markazlashgan ijtimoiy sug'urta fondini tashkil etish; ko'rsatilgan xizmatlar va samarali mehnatlar uchun davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar; ijtimoiy ahmiyatga ega bo'lgan xizmatlar narxlaridagi farqlarni budget hisobidan qoplash; ijtimoiy sohaning eng muhim tarmoqlari (ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya, sport va madaniyat) moddiy bazasini qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash; mehnat jamoasi tomonidan xodimlarni ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirishga doir shart-sharoitlar yaratish. Albatta, bu masalalar yuzasidan islohotlarni amalga oshirish davom etyapti. Chunki jamiyat global jarayonlar bilan birga taraqqiyot sari qadam qo'yib borar ekan, bu hamisha o'zgarishlar va yangilanishlarni toqazo qiladi. U umumbashariy yuksalishning bir qismi sifatida islohotlar o'tkazishi kerak bo'ladi. Lekin hech bir jamiyat milliy yuksalmay turib, umumbashariy taraqqiyotga erisholmaydi. Demak qadriyatlashayotgan har qanday zamонави, umuminsoniy omillar milliy asosdan oziqlanishi kerak.

**Natijalar.** Globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni takomillashtirish zarurati quyidagilarda ko'rindi:

- Ayrim qadriyatlashgan urf-odat, ko'nikmalarda stereotiplarning saqlanib qolninganligi;
- "demokratiya", "ommaviy madaniyat" niqobi ostidagi nosog'lom muhit, sharqona axloq normalariga zid turmush tarzini singdirishga bo'lgan noxolis urinishlarning uchrayotganligi;
- zo'ravonlik, egotsentrizm g'oyalarining targ'ib etilishi, narkotik moddalar, ommaviy qirg'in qurollari va odam savdosi orqali boylik to'plashga bo'lgan harakatlarning chegara oshib o'tayotganligi;
- milliy axloq me'yorlariga zid unsurlarning tarbiya o'chog'i bo'lgan oilaga kirib borayotganligi;
- globallashuv jarayonining xalqlarning ma'naviy-milliy negizlariga ta'siri;
- global muammolarning xarakteri, mohiyati o'zgarib borayotganligi;
- bugungi zamonda ruxiga mos kelmaydigan, umuminsoniy tamoyillardan ortda qolayotgan milliy qadriyatlarning ham amal qilayotganligi kabilar.

Hozirgi globallashuv sharoitida ijtimoiy siyosatning eng asosiy vazifasi fuqaroning umuminsoniy va milliy kamoloti, komil inson yordamida jamiyatning ravnaqi va barqarorligini ta'minlash, ya'ni uning hayotiy ne'matlarini o'zi yordamida yaratib, yana shu komil insonning mukammal ijtimoiy siyosat yuritishiga erishish. Fuqaroning umuminsoniy kamoloti uning jisman va ma'nani sog'lomligi, intellekti, tashabbuskorligi, yaratuvchanligi, yuksak salohiyatida namoyon bo'lsa, milliy kamoloti undagi milliy xarakter va milliy g'ururning shakllanganligi, uning umumqadriyatlari bankida milliy qadriyatlarni ustuvorligi, Vatan va millat manfaatlarida o'z manfaatlarini ko'ra bilishida ko'rindi. Inson ehtiyojlarining cheklanmaganligi ijtimoiy siyosatning inson kamolotiga oid vazifasini yanada murakkablashtiradi va ahamiyatini oshiradi. Bu vazifani og'irlashtiradigan yana bir qancha global darajadagi muammolar mavjud. Bular:

- resurslar cheklangan sharoitda ehtiyojlarning cheklanmaganligi, ayniqsa ehtiyojlarning gorizontal tarzda o'sib borayotganligi;
- tabiiy qadriyatlarning qadrsizlanishi, ularga ona zamin, ona tabiat sifatida umuminsoniy va milliy xususiyatlar asosida yondashuvning pasayib borayotgani tufayli kelib chiqadigan ekologik muammolar;
- boylik va qashshoqlik orasidagi tafovutning tobora kengayib borayotganligi. Bu muammo nafaqat alohida mamlakatning fuqarolari o'rtasida, balki mamlakatlarning iqtisodiy imkoniyatlari bilan bog'liq darajada ham ko'zga tashlanib bormoqda;
- globallashuvning ayrim "ommaviy madaniyat" ko'rinishidagi chegara bosib o'tishlari ayrim milliy qadriyatlarning ahamiyati pasayishiga, boshqacha aytganda, uning "yemirilishiga" olib kelayotganligi.

**Xulosa.** Globallashuv sharoitida ijtimoiy siyosat milliy qadriyatlarning amal qilishi, takomillashuvi va shakllanishida quyidagilarni e'tiborda tutishi lozim:

Birinchidan, milliy qadriyatlarni ishtirokisiz umuminsoniy qadriyatlarni hech bir insonning turmush tarziga singdirish mumkin emas. Umuminsoniy tamoyillar ustuvor bo'limgan davlatlar globallashuvning beto'xtov va keskin rivojlanish, qanot yozish jarayonlarida "qoqilib" qolishi, ya'ni, bu jarayonning ijobiyidan ko'ra ko'proq salbiy oqibatlari qurbaniga aylanishi mumkin.

Ikkinchidan, milliy qadriyatlar tizimini takomillashtirishga ta'sir ko'rsatish jarayonida ijtimoiy siyosatning o'zi ham takomillashib, o'zgarib boradi.

Uchinchidan, global jarayonlar jahon miqyosini qamrab olish bilan umumiylig, ma'lum bir makonda va muayyan millat hayotida sodir bo'lishi xususiylik kasb etadi. Bu xususiylik umumiyning qismi bo'lsa-da, millat va hududga xos xususiy sifatlarsiz namoyon bo'lishi uning amal qilish hududida "begonalashuv"iga olib keladi.

To'rtinchidan, millat milliy qadriyatning haqiqiy egasi. Ijtimoiy siyosat millat bilan hamohanglikda milliy qadriyatlarning makon va zamondagi harakati, o'tmishdan kelajakka yashab o'tishini ta'minlagandagina milliy ijtimoiy siyosat maqomini oladi. Milliy ijtimoiy siyosat bo'lmas ekan, mamlakat jahon sahnida o'z o'rnnini yo'qotadi.

Beshinchidan, milliy qadriyatlar takomillashib bormasa, ularning yashovchanligi yo'qoladi, bu esa global dunyoda millatni tanazzulga olib boradi.

Oltinchidan, milliy qadriyatlarning takomillashuviga ijtimoiy siyosat bilan birga millatning o'zi mas'ul bo'lishi shart. Bu mas'ullik darajasi globallashuv jarayonidagi yashovchanlik darajasini ham belgilab beradi.

Qozog'istonlik olim G'. Qodirjonovning ta'kidlashicha: "qozoq ziyolilarining o'z ona tillarini o'rganishlari, o'zlashtirishi va o'z tillarida ilmiy falsafiy, siyosiy kitoblarни yozishi o'ta mushkul bo'lib qolayotganligining sababi - ular milliy ruhining erkinligiga nisbatan uzoq yillar hukmron bo'lgan "qizil imperiyaning" mafkuraviy tazyiqining natijasidir." [7] Demak, milliy ruh erkinligi milliy qadriyatlarni asrashning muhim omilidir.

Globallashuv sharoitida ijtimoiy siyosatning milliy qadriyatlarni takomillashtirishga oid vazifalarida quyidagilar aks etishi lozim:

- milliy manfaatlarning ustuvorligi tamoyilining amal qilishi yordamida o'zga davlatlarning ta'siriga tushib qolmaslik;

- globallashuvning zararli ta'siridan millat yoshlarining ongu tafakkurini himoya qilish;

- dunyodagi intellektual bellashuvda o'z pozitsiyasiga ega bo'lish;

- umuminsoniy tamoyillarni milliy-ma'naviy, axloqiy me'yorlar bilan uyg'unlashtirish;

- o'z subyektlarining milliy-ma'naviy xususiyatlarini saqlab qolish, ulaning amal qilishiga imkoniyat yaratish;

- hududda ijtimoiy tenglikni ta'minlash choralarini ko'rish, shahar va qishloqning yaqinlashuvini ta'minlash;

- global axborot maydoni yaratishda huquqiy, siyosiy va milliy madaniyatni ta'minlash choralarini ko'rish va boshqalar.

Global hukmronlikka harakat qilayotgan bunday kuchlarni ivojlanmagan va rivojlanish bosqichiga kirgan mamlakatlarda umummadaniy qadriyatlar joiy etilishi tahdidi ostida milliy qadriyatlarning "yemrilib borish" xavfi yuzaga kelayotgani tashvishlanmasligi tayin. [5, 16-b.]

Ijtimoiy siyosat milliy qadriyatlarni takomillashtirishda milliy g'oyaga asoslanadi. Chunki, milliy g'oya xalqni birlashtiradigan oliy maqsadlar bo'lib, u asrlar davomida xalqning yuragida joylashib kelgan orzu-umidlari, ezgu intilishlari, maqsadlari bilan chambarchas bog'liqdir. Bu borada ijtimoiy siyosat oldida turgan eng asosiy va muhim vazifalardan biri — ana shu ezgu tushunchalar, intilishlar ila "komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi tamoyillarning ma'no-mohiyatini bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim-tarbiya ishlarining markaziga qo'yish" dan iborat. [4, 4-b.]

**Адабиётлар/Литература/References:**

1. Sh.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent. O'zbekiston. 2021 y. -B. 268.
2. Nazarov Q. Falsafa asoslari. T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2012. 614-b.
3. Ochilova B.Milliy-ma'naviy yuksalishda mos qadriyatlar va vorisiylik.T.,Istiqlol, 2009. B.-114.
4. Ravshanov F.R. Davlatning kadrlar siyosati. O'quv qo'llanma. –T.: Akademiya, 2012. –B.4.
5. Umarov B."G'arb tamadduni: inqiroz alomatlari"."Tafakkur" jurnali, 2/2007y. B-16.
6. Uchebniy sotsiologicheskiy slovar. Pod red. S.A. Kravchenko. – M., 1999. – B.52.
7. 2002 yil 8-mayda JIDU da bo'lib o'tgan Xalqaro konferensiyaning bayonnomasida keltirilgan fikrdan ko'chirma.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**Nº 9 (4) – 2024**

### **АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
маъсулити чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).